SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

OILADAGI MUNOSABATLAR DOIRASIDAGI JINOYATLARDAN JABRLANGAN SHAXSLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Rajabov Umrbek Ravshanbekovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamenti Jismoniy va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i podpolkovnik

Annotatsiya

Ushbu maqolada oiladagi munosabatlar doirasida sodir etilgan jinoyatlardan jabrlangan shaxslarning kriminologik tavsifi o‘rganilgan. Jabrlanuvchilarning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, huquqiy xabardorligi, psixologik va ruhiy holati kabi omillar asosida ularning umumiy portreti shakllantiriladi. Xususan, oilaviy zo‘ravonlik, psixologik bosim, iqtisodiy kamsitish, jinsiy tahdidga uchraganlar toifasi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, jabrlanuvchilarning jinoyat to‘g‘risida xabar berishdagi psixologik to‘siqlari, ularni himoya qilishdagi huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, hamda ijtimoiy xizmatlarning roli yoritilgan. Tahlillar asosan real kriminologik statistik ma’lumotlar, ijtimoiy so‘rovlar va jinoyat ishlari materiallari asosida olib borilgan.

Kalit so‘zlar

Jabrlanuvchi, oilaviy zo‘ravonlik, kriminologik tahlil, ijtimoiy xavf, huquqiy himoya, gender tengligi, psixologik yordam.

KIRISh

Aybdor va jabrlanuvchi shaxs o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar huquqbuzarlik sodir etilishining omili sifatida kriminologiyada qadimdan alohida e’tiborni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Kriminologik adabiyotlarda jabrlanuvchini jinoyatning yuzaga kelishidagi asosiy omil deb ko‘rsatib, sodir etilgan jinoyatdan jabr yetkazuvchi shaxs va uning qurboni o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabat oqibati ekanligini ta’kidlagan. [1.1.]

Ma’lumki, jabrlanuvchi tushunchasiga jinoyat-huquqiy fanlar tizimida turlicha tariflar berilgan. Xususan, xorijiy davlatlar, shu jumladan Bolgariya va Ruminiya jinoyat-qonunchiligida jabrlanuvchi atamasi jinoyatdan “zarar ko‘rgan” deb e’tirof etiladi. Xorijiy manbalarda “jabrlangan” yoki “zarar ko‘rgan” atamasidan ko‘proq foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida“huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi deb – jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs” tushuniladi.

Ta’kidlash joizki, bir qator kriminolog olimlar tomonidan oiladagi zo‘ravonlikning jabrlanuvchisini tadqiq etishda jabrlanuvchi masalasiga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, kriminolog olimlar A.N.Krasikov, D.V.Rivman, L.V.Frank, O.V.Lixachaeva va boshqalar jinoyat jabrlanuvchilariga bevosita jinoyat natijasida zarar yetkazilgan alohida shaxslarni kiritadilar. V.Ya.Rыbalskayaning fikricha, “jabrlanuvchi qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmida jinoiy tajovuz natijasida zarar yetkazilgan deb tan olin olingan jismoniy shaxsdir”. [2.4.]

METODLAR VA O‘RGANILISh DARAJASI

Jizzax viloyatida sodir etilgan oiladagi doirasidagi ma’muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari yuzasidan jabrlanuvchi shaxslar haqidagi ma’lumotlar o‘rganilganida, ularning 69,4% er-xotin bo‘lib birga yashaganlar, 13,5% nikohdan ajrashganlar, 8,4% qarindosh-urug‘lar, 4,8% aka-ukalar, 3,1% ota-onalar va farzandlar, 1,3% o‘gay farzand va ota-onalarni tashkil etadi.

Jabrlanuvchi shaxslarning yoshiga oid ma’lumotlar tahlil qilinganida ularning 31,0%ni 18-25 yoshdagi, 27,7%ni 25-35yoshdagi, 19,8%ni 35-45yoshdagi, 14,3%ni 45-55 yoshdagi hamda 7,2% 55 yoshdan yuqori bo‘lganlar tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, oilada zo‘ravonlik qurboni bo‘lganlarning asosiy qismini 18-25 yoshdagilar tashkil etmoqda.

Ushbu toifadagi shaxslarning 60,8% vaqtincha ishsiz, 25,6% ishchilar, 12,0% xizmatchilar, 1,6% tadbirkorlar tashkil qiladi.

Jabrlanuvchi shaxslarning oilasidan ajrashganlik ahvoli tahlil o‘rganilganda, ularning 33,1%ini 18-25 yoshgacha bo‘lganlar, 27,6% 25-30 yosh, 17,3% 30-35 yosh, 13,0% 35-40 yosh, 5,2% 40-45 yosh, 3,8% 45yoshdan katta bo‘lgan shaxslar tashkil etadi.

Jabrlanuvchi shaxslar guruhlarga ajratib tahlil qilinganida, viktimlik darajasi yuqori bo‘lganlarning 68% ayollar, 15% bolalar, 9% qariyalar, 6% erkaklar, 2%ni nogironlar tashkil etadi.

Q.P.Payzullaevning fikricha, jabrlanuvchi shaxslarning kriminologik tavsifi uning jinoyat sodir etilishidan oldingi, jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lgan, shuningdek aynan jinoyat ta’sirida vujudga kelgan hamda jinoyat sodir etilishidan keyingi ahvoliga qarab beriladi. Tabiiyki, jabrlanuvchi shaxslarning kriminologik xususiyatlarini o‘rganish muhim kriminologik choralar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT NATIJALARI

M.X.Rustambaevning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, nomusga tegish jinoyatidan jabrlanganlarning 40,2% aybdorga tanish bo‘lmagan, 2% qizi (o‘gay qizi), 1,5% o‘g‘li(o‘gay o‘g‘li), 0,8% ajrashganlar, 2,7% yaqin qarindoshlari, 22,8% tanishlari, 30% tanishib qolgan shaxslar bo‘lgan.

D.R.Xoliqovning fikricha, ayollarga nisbatan uchraydigan zo‘ravonliklarning eng ko‘p shakllariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusiga tegish, zo‘ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste’mol qildirish, muntazam xo‘rlash va ruhiy ta’sir ko‘rsatish hamda boshqa yo‘llar bilan o‘limga olib borish kabilar kiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bularga oiladagi uzoq davomli janjallar ham sabab bo‘lib, zo‘ravonlik oqibatida nafaqat muayyan shaxs jabrlanadi, balki u yerda tarbiyalanayotgan farzandlar,nafaqat ma’naviy-ruhiy balki, jismoniy jihatdan ham jabrlanadi. Tadqiqotimizning ko‘rsatishicha, jabrlanuvchilar faqatgina 33% holatda huquqbuzar shaxslarga qarshilik ko‘rsatgan uchdan ikki qism jabrlanuvchilar esa,huquqbuzarning xatti-harakatiga nisbatan passiv munosabatda bo‘lishgan. [4.5.]

Tadqiqot jarayonida sud arxividan jabrlanuvchi bilan huquqbuzar shaxsiga oid ma’lumotlar o‘rganilganida, ularning 43,1% erkakning xotiniga, 4,2% xotinning eriga, 13,7% aka yoki ukaning bir-biriga, 1,8% opa yoki singilning bir-biriga, 15,7% nikohsiz birga yashagan xotini (jazmani)ga, 5,3% nikohsiz birga yashagan eri (jazmani)ga, 6,3% ota yoki onaning farzandiga, 2,7% farzandning ota yoki onasiga, 7,3% boshqa qarindosh ularning bir-birlariga nisbatan sodir etishganligi ma’lum bo‘ldi.

Qiziqarli tomoni shundaki, ko‘p hollarda oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlanganlar o‘zlariga yetkazilgan zarar (hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati) haqida ichki ishlar organlari yoki tibbiyot muassasalariga murojaat qilishmaydi. Bu ko‘pincha ayollarda kuzatiladi. Sud-tergov idoralaridan olingan ma’lumotlar o‘rganilganida, ayollarga nisbatan eri tomonidan zo‘ravonlik ishlatilgan taqdirda ham bu haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilmaslikka, shunday holatlarni yashirishga yoki tibbiyot muassasalariga murojaat qilgan taqdirida ham olgan tan jarohatini o‘zining ehtiyotsizligi oqibatida olganligi bilan izohlashga harakat qilishadi. Buning asosiy sababi bo‘lib, ayollarning oilaning buzilib ketishidan qo‘rqishi yoki erining obro‘sini to‘kmaslikka intilishi deb izohlash mumkin.

Tabiiyki, oiladagi doirasida huquqbuzarlikning aksariyat qismida jabrlanuvchilar o‘zlarini himoya qilish imkoniga ega emaslar. Misol uchun, to‘satdan oilada yuzaga kelgan nizoni bartaraf etishda jabrlanuvchining ojiz ahvolda ekanligi uni jabrlanishiga sharoit yaratadi. Biroq, bunday holatlar jinoyat sodir etilishiga ko‘maklashuvchi vazifani o‘taydi. Ko‘maklashish deganda – jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan vaziyatni vujudga keltirish tushuniladi.

Jabrlanuvchilarning shaxsi jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muayyan vaziyatlarda o‘zini faol harakatlarini amalga oshirmasdan, balki o‘zining ijobiy hulq-atvori yoki ayrim hatti-harakatlari bilan jinoyatlarning kelib chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Lekin, ko‘p hollarda jabrlanuvchilar shunday yo‘l tutmay o‘zining salbiy hulq-atvori, axloqi, ma’naviyatsizligini namoyon qilib, jinoyatning jabrlanuvchisiga aylanadi. Misol uchun, 1967 y.t. fuqaro A. o‘zining uyida turmush o‘rtog‘i R.ga «nima sababdan ko‘chada yuribsan, uyda o‘tirsang bo‘lmaydi-mi?» deb so‘ragan vaqtida, turmush o‘rtog‘i unga «sen ham uyda o‘tirmasdan bozor qilib kelmaysanmi?» deb erining shaxsiyatiga tegadigan so‘zlarni aytib u bilan tortishishi natijasida fuqaro A. turmush o‘rtog‘i R.ni qattiq predmet bilan tanasining turli joylariga urib shikast yetkazgan.

Mazkur masala yuzasidan S.S.Niyozova jabrlanuvchilarning jinoiy fe’l-atvor mexanizmida tutgan o‘rniga ko‘ra, ularni ikki toifaga, ya’ni jinoyat sodir etishga undovchi va undamaydiganlarga ajratgan. Kriminologiyada bu aybli va aybsiz viktimlik deb, e’tirof etiladi. Shunday qilib, zo‘ravonlik jinoyatlarining qariyb yarmida jinoyatchining qarindoshlari yoki tanishlari jabrlangan. Bu, ayniqsa qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish,haqorat qilish, bezorilik, qasddan odam o‘ldirish kabi jinoyatlarga xosdir.

S.N.Abelsevning fikricha, qasddan odam o‘ldirishning motivi kriminogen vaziyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu qilmishlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qotillik jinoyatlari shaxsning emotsional ruhiy holatining buzilishi oqibatida yuzaga keladi. Ruhiy holatning buzilishi insonga ta’sir etgan salbiy hulq-atvorning oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Fikrimizcha, jabrlanuvchining xulq-atvorini jinoiy hulq mexanizmidagi tutgan o‘rniga qarab tasniflash ko‘proq ahamiyatlidir. Shu mexanizmdan kelib chiqqan holda, jabrlanuvchining xulq-atvorini o‘rganishda ularni, jinoyat sodir etilishiga ko‘maklashadigan xulq-atvorini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: *birinchidan,* jabrlanuvchining salbiy xulq-atvori va ma’naviyatsizligi, *ikkinchidan,* shaxsning huquqiy ongi va madaniyatining pastligi, *uchinchidan,* shaxsning mastlik darajasi uning jinoyatdan jabrlanishiga sabab bo‘ladi.

L.A.Kolpakovaning fikricha, oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga uning oila a’zolari yoki yaqin oilaviy munosabatda bo‘lgan qarindoshlari tomonidan ruhiy, jismoniy va boshqa ko‘rinishdagi zo‘ravonliklar sodir etiladi.

M.Karimjonov, Sh.Bobodo‘stovlar ta’kidlaganidek,ayrim holatlarda jabrlanuvchilarning o‘zlari ichkilikbozlikka ixtiyoriy qatnashadi, jinoyat sodir etish paytida mast holatda bo‘la turib, huquqbuzarga ruhan yoki jismonan jiddiy qarshilik ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lmaydilar.

Oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlanganning hulq-atvori va xususiyatlari o‘rganilganida, ularning 47,1%da jinoyat sodir etilish vaqtida mast holatda bo‘lgan, 31,4% salbiy-xulq atvorga ega bo‘lgan, 21,5% holatda esa jinoyat sodir etilishidan oldin nizoli vaziyatlar mavjud bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayollarning jismonan ojizligi ham ularning zo‘ravonlikka duchor bo‘lish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bunday tazyiqlar, asosan turmush o‘rtoqlari tomonidan 38% amalga oshirilsa, ulardan keyingi o‘rinda qaynona va qaynotalar 32%, erning opa-singillari tomonidan 19% hamda aka-ukalari tomonidan 11% sodir etilar ekan.

XULOSA

Shunday qilib, ushbu zo‘ravonlikning sodir etilishida oiladagi o‘zaro munosabatlar va manfaatlarning qarama-qarshiligi ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etilishiga ta’sir ko‘rsatgan hulq-atvori tasodifiy bo‘lmagan, ya’ni ularning salbiy hulq-atvori va xatti-harakatlarida namoyon bo‘lgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda har yili 3 mingdan 5 minggacha bola o‘z ota-onasining shafqatsiz munosabati qurboni bo‘lishmoqda. Shu bilan bir qatorda,16% bolalar o‘z aka opalari tomonidan turli jismoniy usullar – savalash, kaltaklash bilan jazolanmoqda. Qolaversa, o‘gay ota-onalar tomonidan bir yilda 400 marotaba jinoyat sodir etilayotgani, eng achinarlisi ular o‘z qilmishlari bilan farzandlarining o‘limiga sababchi bo‘layotgani aniqlangan.

Bizningcha, bu borada jabrlanuvchilar xulq-atvorini tadqiq etish voyaga yetmaganlar viktimologiyasi uning kriminologiyasi kabi shunchalik muhimdir. L.V.Frank ta’kidlaganidek, voyaga yetmaganlar yoshining bir qator psixologik xususiyatlari ayrim turdagi jinoyatchilar, jinoyat qurbonlarining vujudga kelishiga bir xil ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Eng achinarlisi shundaki, oilada bolalar o‘zlari sevadigan va ishonadigan ota-onalari yoki oilaning boshqa a’zolari tomonidan kaltaklanishi, xo‘rlanishi, zo‘ravonlikka uchrash ehtimoli ancha yuqoridir. Hozirda dunyoning turli hududlarida bolalar o‘z oila a’zolari tomonidan amalga amalga oshiriluvchi kaltaklash, tepkilash, silkitish, do‘pposlash, tishlash, kuydirish, bo‘g‘ish, zaharlash va dimiqtirish kabi azob-uqibatlarni boshidan kechirmoqda. Ba’zi jiddiy hollarda bunday zo‘ravonlik bolalarning o‘limiga yoki ularning nogiron bo‘lib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Boshqa hollarda jismoniy zo‘ravonlik ko‘zga tashaluvchi ish qoldirmasligi ham mumkin. Ammo, har qanday holda ham jismoniy zo‘ravonlik bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada bolalarga nisbatan qanchalik zo‘ravonlik yoki zulmkorlik o‘tkazilgan taqdirda ham ular bu haqida hech kimga aytmaydilar, deb qat’iy xulosa qilish mumkin.

O.Aniщikning fikricha, oiladagi zo‘ravonliklardan jabrlangan shaxslarning soni va undan himoyalanish uslublari to‘g‘risida ma’lumotning yetarlicha emasligi bu holatni yanada murakkablashtiradi. Umuman olganda, jabrlanuvchida ma’lumot darajasining pastligi, o‘ziga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlikni oilaviy muammo sifatida baholashi, uni boshqalarga oshkor qilmasdan, kelgusida oila a’zolari bilan o‘rtadagi munosabatni ijobiy tomonga o‘zgarishiga umid qilishi oiladagi zo‘ravonlikning latentlik darajasini yanada oshishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T., 2006. – B. 38.
2. Abdurasulova Q. Ayollar jinoyatchiligi // Hayot va qonun. 2004. – №4. – B. 71-72.
3. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: yurid. fan. dok-ri. diss-ya. –T., 2006. –B. 117-118.
4. Abzalova X.M. Odam o‘ldirishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2020. – B.19.
5. Antonyan Yu.M. Prichinы prestupnogo povedeniya. –M., 1992. –S. 114.
6. Berdiev Sh. Voyaga yetmaganlar huquqlari. Huquqshunos-yurist. 2008. №3.-14 b.
7. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989 yil), 6-10 moddalar.
8. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘yicha butunjahon hisoboti. –T., 2009, –B. 174.
9. Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik. / R.Kabulov, M.Rustambaev, A.Otajonov va boshqalar. / Mas’ul muharrir: Sh.Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 50.